

KOMPANIYANING XARAJATLARINI KAMAYTIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHDA MOLIVAVIY MENEJMENTDAN FOYDALANISH MEKANIZMLARI

Bakayeva Mohira Axrorovna

Buxoro davlat universiteti, iqtisodiyot kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kompaniyaning xarajatlarini kamaytirish strategiyasini ishlab chiqishda moliyaviy menejmentning o'rnini va ahamiyati tahlil qilinadi. Moliyaviy menejment vositalaridan samarali foydalanish orqali korxonalar ishlab chiqarish va operatsion xarajatlarni optimallashtirish, foydani oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Xorijiy va mahalliy tajribalar asosida xarajatlarni kamaytirishning ilg'or strategiyalari hamda moliyaviy menejment vositalari o'rganilib, amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy menejment, xarajatlarni kamaytirish, strategik boshqaruv, operatsion samaradorlik, korporativ moliya, investitsiyalar, budjetlashtirish, iqtisodiy barqarorlik.

МЕХАНИЗМЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ФИНАНСОВОГО МЕНЕДЖМЕНТА ПРИ РАЗРАБОТКЕ СТРАТЕГИИ СОКРАЩЕНИЯ ЗАТРАТ КОМПАНИИ

Бакаева Мохира Ахроровна

*Бухарский государственный университет, старший преподаватель кафедры
экономики*

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и значение финансового менеджмента в разработке стратегии сокращения затрат компании. Эффективное использование инструментов финансового менеджмента позволяет предприятиям оптимизировать производственные и операционные расходы, увеличивать прибыль и обеспечивать финансовую устойчивость. На основе зарубежного и отечественного опыта изучены передовые стратегии сокращения затрат и механизмы финансового управления, а также предложены практические рекомендации.

Ключевые слова: финансовый менеджмент, сокращение затрат, стратегическое управление, операционная эффективность, корпоративные финансы, инвестиции, бюджетирование, экономическая устойчивость.

MECHANISMS OF USING FINANCIAL MANAGEMENT IN DEVELOPING A COMPANY'S COST REDUCTION STRATEGY

Bakayeva Mohira Axrorovna

Bukhara State University, Senior Lecturer at the Department of Economics

Abstract: This article examines the role and importance of financial management in developing a company's cost reduction strategy. Effective use of financial management tools enables enterprises to optimize production and operational costs, increase profitability, and ensure financial stability. Based on foreign and domestic experiences, advanced cost reduction strategies and financial management mechanisms are analyzed, and practical recommendations are provided.

Keywords: *financial management, cost reduction, strategic management, operational efficiency, corporate finance, investments, budgeting, economic stability.*

KIRISH

Bugungi kunda kompaniyalarning samarali faoliyat yuritishi uchun moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, raqobat sharoitida xarajatlarni optimallashtirish va kamaytirish kompaniyaning barqarorligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, moliyaviy menejmentning samarali vositalaridan foydalanish orqali kompaniyaning xarajatlarini nazorat qilish va kamaytirish strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb masaladir. Mazkur tadqiqot mavzusi kompaniyaning xarajatlarini optimallashtirishga qaratilgan moliyaviy menejment mexanizmlarini o'rganish, samarali strategiyalarni ishlab chiqish va ularning amaliy qo'llanilishiga baho berishdan iborat. Moliyaviy menejment bu jarayonda asosiy rol o'ynab, xarajatlarni qisqartirishga qaratilgan rejalashtirish, nazorat va tahlil mexanizmlarini shakllantiradi.

Kompaniyaning xarajatlarini kamaytirish strategiyasi turli yondashuvlarni o'z ichiga olishi mumkin, moliyaviy rejalashtirish va budjetlashtirishni takomillashtirish, ishlab chiqarish va operatsion samaradorlikni oshirish, sarmoyalarni optimallashtirish va resurslardan oqilona foydalanish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali xarajatlarni kamaytirish, soliqlarni optimallashtirish va moliyaviy risklarni boshqarish kabilar alohida o'rganiladi. Mazkur tadqiqotning maqsadi – kompaniyaning xarajatlarini kamaytirish jarayonida moliyaviy menejment mexanizmlaridan samarali foydalanishning ilmiy va amaliy asoslarini ishlab chiqishdan iborat. Shu bilan birga, strategik rejalashtirish va moliyaviy boshqaruvning zamonaviy usullarini qo'llash orqali kompaniyaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash ham ko'zda tutilgan.

Ushbu mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida kompaniyalar o'z moliyaviy resurslarini samarali boshqarish, ortiqcha xarajatlarni kamaytirish hamda

foydani oshirish yo‘nalishida aniq mexanizmlar va strategiyalarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shunday qilib, kompaniyaning xarajatlarini kamaytirish strategiyasini ishlab chiqishda moliyaviy menejmentdan foydalanish mexanizmlarini o‘rganish va amaliyotga joriy etish bugungi iqtisodiy sharoitda eng muhim masalalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kompaniyaning xarajatlarini kamaytirish strategiyasini ishlab chiqishda moliyaviy menejmentning roli katta ahamiyatga ega. Xarajatlarni samarali boshqarish orqali kompaniya raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash va foydani ko‘paytirish mumkin. Xorijiy tadqiqotchilardan R.S. Kaplan va D.P. Norton o‘z asarlarida strategik boshqaruv tizimida kompaniyaning samaradorligini oshirish va iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish masalalariga e‘tibor qaratganlar [4]. Ularning tadqiqotlari kompaniya faoliyatini baholashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar xarajatlarni kamaytirish strategiyasini ishlab chiqishda foydali hisoblanadi. J.B. Budvil, N. Grosjan, P. Krugman, A. Lyosh, B.O. Lundval, J. Mansinen, E. Mey, F. Perru, P. Romer, N.I. Berzon, I.S. Bukina, V.K. Burlachkov, I.Yu. Varyash, M.I. Gelvanovskiy, B.V. Gubin, A.S. Jegalova, A.Yu. Laykov, L.N. Likova, V.D. Milovidov, Ya.M. Mirkin, A.Yu. Mixaylov, V.K. Enchagov, V.V. Simonyan, E. Raynert, X. Richardson, Dj. Fridman, K. Frimen, P. Xagget, T. Xagerstrand, M. Porter, Y. Shumpeter kabi olimlar korporativ moliyaviy menejment nazariyalari doirasida kompaniya xarajatlarini boshqarish va kamaytirish strategiyalari bo‘yicha tadqiqotlar olib borganlar [3,5].

Mahalliy tadqiqotchi olimlardan O‘.A. Axmedov va B.B. Hamidov “Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishning iqtisodiy ahamiyati va uni to‘g‘ri hisobga olish zaruriyati” nomli maqolalarida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishning iqtisodiy ahamiyati va uning boshqaruv usullarini tahlil qilganlar [16]. Ularning tadqiqotlari korxonaning iqtisodiy rivojlanishiga imkon beruvchi xarajatlarni boshqarish strategiyalarini o‘rganishga qaratilgan. S.X. Rasulova “Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishning iqtisodiy ahamiyati va uni to‘g‘ri hisobga olish zaruriyati” nomli maqolasida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishning iqtisodiy ahamiyati va uning boshqaruv usullarini tahlil qilgan [17]. A. Yuldasheva “Moliyaviy menejmentni tashkil etishning asosiy yo‘nalishlari” nomli maqolasida korxonalarda moliyaviy menejment tizimini tashkil etish, moliyaviy faoliyatni nazorat qilish, moliyaviy imkoniyatlar va samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholash, moliyaviy strategiyalar va siyosatni ishlab chiqishda moliyaviy menejmentning amalga oshiradigan aniq funksiyalari va vazifalarini belgilagan [18]. B.Yu. Xodiyev, B.B. Berkinov, I.L. Butikov, D.X. Suyunov, M.B. Xamidullin, A.A. Xoshimov, R.X. Karlibayeva, S.S. G‘ulomov, R.I.

Yaushev kabi olimlar o'z ilmiy ishlarida korxona moliyaviy siyosatini amalga oshirish, shakllantirish va uning milliy modeli shakllanishi bosqichlarining o'ziga xos bo'lgan afzallik va kamchiliklarini tavsiflashga katta e'tibor qaratganlar [18,19,20]. Xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari kompaniya xarajatlarini kamaytirish strategiyasini ishlab chiqishda moliyaviy menejmentning muhimligini tasdiqlaydi. Moliyaviy menejment vositalari va usullaridan samarali foydalanish orqali kompaniyalar xarajatlarni optimallashtirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

METODOLOGIYA


Tadqiqotda nazariy va amaliy tahlil usullariga asoslanib olib borildi. Moliyaviy menejmentning kompaniya xarajatlarini kamaytirishga ta'sirini aniqlash uchun empirik tadqiqot, qiyosiy tahlil, statistik ma'lumotlar tahlili kabi metodlardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bozordagi raqobat sharoitida kompaniyaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va samarali faoliyat yuritish uchun xarajatlarni optimallashtirish muhim strategik yo'nalish hisoblanadi. Xarajatlarni kamaytirish faqatgina kompaniyaning daromadini oshirish vositasi bo'lib qolmay, balki resurslardan samarali foydalanish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va boshqaruv samaradorligini oshirish jarayoni bilan ham bog'liqdir.

Moliyaviy menejment kompaniyaning xarajatlarini optimallashtirish va samaradorligini oshirish bo'yicha turli vositalarni taklif etadi. Ushbu maqolada kompaniyaning xarajatlarini kamaytirish strategiyalarini ishlab chiqishda moliyaviy menejmentning o'рни, usullari va mexanizmlari chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy kompaniyalarning tajribasi asosida qiyosiy tahlil ham keltiriladi.

Kompaniyaning moliyaviy holati bevosita xarajatlarni boshqarish samaradorligiga bog'liq.



1-rasm. Korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi nazorat qilinadigan xarajat turlari

Ishlab chiqarish xarajatlari – xomashyo, materiallar, energiya va boshqa ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog‘liq xarajatlar. Operatsion xarajatlar – ishchi kuchi, ofis xarajatlari, transport va boshqa xizmatlar uchun sarflanadigan mablag‘lar. Moliyaviy xarajatlar – foiz to‘lovlari, qarz majburiyatlari va boshqa moliyaviy vositalar bilan bog‘liq xarajatlar. Marketing va reklama xarajatlari – brendni rivojlantirish, mijozlarni jalb qilish va mahsulot sotuvini oshirishga yo‘naltirilgan xarajatlar. Boshqaruv xarajatlari – rahbar xodimlarning maoshlari, xizmat safarlari va boshqa boshqaruvga oid sarflar. Xarajatlarni kamaytirishning maqsadi kompaniyaning moliyaviy barqarorligini oshirish, investorlar uchun jozibadorligini mustahkamlash va raqobatbardoshligini saqlashdan iborat.

Moliyaviy menejment kompaniyaning moliyaviy faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va samaradorligini oshirish bo‘yicha muhim rol o‘ynaydi. Xarajatlarni kamaytirish uchun turli strategiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular quyidagi yo‘nalishlarga asoslanadi:

Budjetlashtirish va xarajatlarni rejalashtirish. Budjetlashtirish kompaniyaning moliyaviy resurslarini samarali boshqarishga yordam beradi. Eng samarali usullardan biri nol baza asosida budjetlashtirish (Zero-Based Budgeting – ZBB) bo‘lib, bu usul xarajatlarni an‘anaviy emas, balki har safar yangidan tahlil qilish va asoslashga asoslangan¹.

Statik budjetlashtirish – doimiy daromad va xarajat rejalari bo‘yicha ishlaydi. Dinamik budjetlashtirish – real bozor sharoitlariga mos ravishda xarajatlarni qayta rejalashtirishga imkon beradi². Xarajatlarni kamaytirish strategiyalariga ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish, moliyaviy xarajatlarni kamaytirish, hamda marketing va reklama xarajatlarini optimallashtirish jarayonlari kiradi. Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish bu robototexnika va sun‘iy intellekt orqali ish unumdorligini oshirish imkonini beradi. Sifat menejmentini joriy etish orqali ishlab chiqarishdagi nuqsonlarni kamaytirish orqali mahsulot tannarxini pasaytirish mumkin. Yetkazib beruvchilar bilan muzokaralar olib borish jarayonida xomashyo xarajatlarini kamaytirish uchun strategik hamkorlikni rivojlantirish kerak.

Elektron hujjat aylanish tizimini joriy etishda qog‘oz va boshqa an‘anaviy jarayonlardan voz kechish orqali mablag‘ tejaladi. Masofaviy ish tizimiga o‘tish jarayonida ofis xarajatlarini kamaytirish orqali iqtisodiy samaradorlik oshiriladi. Qarz kapitali va foiz to‘lovlarini optimallashtirish bilan eng qulay kredit shartlarini tanlash va qarz yukini kamaytirish mumkin³.

¹ [https://www.oracle.com/performance-management/planning/zero-based-budgeting/#:~:text=Zero%2Dbased%20budgeting%20\(ZBB\),and%20adjusting%20it%20as%20needed.](https://www.oracle.com/performance-management/planning/zero-based-budgeting/#:~:text=Zero%2Dbased%20budgeting%20(ZBB),and%20adjusting%20it%20as%20needed.)

² <https://cyberleninka.ru/article/n/daromad-va-xarajatlarning-togri-toifalanishini-taminlashda-auditorlarning-orni>

³ <https://advice.uz/oz/document/2454>

Moliyaviy risklarni boshqarish orqali kurs o'zgarishlari va inflyatsiyaga qarshi himoya strategiyalari ishlab chiqiladi. Raqamli marketingga o'tishda an'anaviy reklama o'rniga ijtimoiy tarmoqlar va sun'iy intellekt orqali tahlillarga asoslangan reklama kampaniyalaridan foydalanish muhim hisoblanadi. Xalqaro miqyosdagi yirik kompaniyalar moliyaviy menejment mexanizmlaridan samarali foydalangan holda xarajatlarni kamaytirish strategiyalarini joriy etgan.

Quyidagi 1-jadvalda dunyodagi yetakchi kompaniyalarning xarajatlarni kamaytirish bo'yicha qo'llagan usullari va ularning natijalari tahlil qilinadi.

1-jadval

Xorijiy kompaniyalarning xarajatlarni kamaytirish bo'yicha strategiyalari va natijalari (Osiyo kompaniyalari misolida)⁴

Kompaniya	Xarajatlarni kamaytirish strategiyasi	Amaliy qo'llanilgan usullar	Natijalar
Toyota (Yaponiya)	Lean Manufacturing (Tejamkor ishlab chiqarish)	- Kaizen (uzluksiz takomillashtirish); - Ishlab chiqarish chiqindilarini minimallashtirish; - "JIT" (Just-in-Time) tizimi.	Ishlab chiqarish xarajatlari 20% gacha kamaydi, samaradorlik oshdi.
Samsung (Janubiy Koreya)	Innovatsiyalar va AR/VR texnologiyalardan foydalanish	- Yangi mahsulot ishlab chiqarishda resurslarni tejash; - Sun'iy intellekt bilan mahsulotni ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish; - Kompaniyaning energiya samaradorligini oshirish.	Ishlab chiqarish xarajatlari 18% kamaydi, mahsulot sifati oshdi.

Jadval ma'lumotlari asosida shuni xulosa qilish mumkinki, Osiyo kompaniyalari, xususan, Toyota va Samsung, xarajatlarni kamaytirish bo'yicha turli innovatsion strategiyalardan foydalanib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga erishmoqda. Toyota Lean Manufacturing tizimi va Kaizen usulini joriy etib, ishlab chiqarish xarajatlarini 20% ga kamaytirgan va samaradorlikni oshirgan. Samsung esa

⁴ Muallif ishlanmasi

innovatsiyalar va AR/VR texnologiyalarini tatbiq etib, mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga erishgan.

Natijada ishlab chiqarish xarajatlari 18% ga kamayib, mahsulot sifati oshgan. Bu kompaniyalar tajribasi shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlarida texnologik yangiliklardan foydalanish va tizimli yondashuv xarajatlarni kamaytirishda va bozor raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Mahalliy kompaniyalar uchun bu tajribalar xarajatlarni optimallashtirish va moliyaviy menejment vositalaridan samarali foydalanish borasida muhim model bo'lishi mumkin. Xususan, raqamli texnologiyalar, yetkazib berish zanjirini optimallashtirish va avtomatlashtirish sohalari kompaniyalarning xarajatlarini kamaytirishda samarali vositalar sifatida xizmat qilishi mumkin.

2-jadval

Xorijiy kompaniyalarning xarajatlarni kamaytirish bo'yicha strategiyalari va natijalari (AQSh kompaniyalari misolida)⁵

Kompaniya	Xarajatlarni kamaytirish strategiyasi	Amaliy qo'llanilgan usullar	Natijalar
Amazon (AQSh)	Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish	- Logistika va ombor tizimlarini Avtomatlashtirish; - Big Data tahlili orqali xarajatlarni optimallashtirish; - Robototexnika joriy etish.	Operatsion xarajatlar 30% ga qisqardi, yetkazib berish vaqti optimallashtirildi
General Electric (AQSh)	Raqamli transformatsiya va IoT texnologiyalar	- Industrial Internet of Things (IIoT) dan foydalanish; - Ishlab chiqarish jarayonlarining optimalashtirilishi; - Raqamli blits tahlil tizimi.	Ishlab chiqarish samaradorligi 15% oshdi, energiya xarajatlari qisqardi
Tesla (AQSh)	Mahalliy ishlab chiqarish va avtomatlashtirish	- Yashil energiyaga o'tish; - Ishlab chiqarish jarayonlarining ichki nazorati; - Barcha jarayonlarni avtomatlashtirish.	Tannarx 20% ga kamaydi, ishlab chiqarish tezligi oshdi
Apple (AQSh)	Ta'minot zanjirini	- Xitoy, Hindiston va Vetnamda ishlab chiqarish	Ishlab chiqarish tannarxi 25% gacha qisqardi,

⁵ Muallif ishlanmasi

	diversifikatsiya qilish	bazalarini tashkil qilish; - Xomashyo xarajatlarini optimallashtirish; - Yetkazib beruvchilar bilan uzoq muddatli shartnomalar tuzish.	kompaniyaning foydasi oshdi
Walmart (AQSh)	Raqamli ta'minot tizimi va logistika optimallashtirish	- Sun'iy intellekt orqali talab prognozini tuzish; - Yetkazib berish zanjirini optimallashtirish; - Mahsulot narxlarini barqaror ushlab turish strategiyasi.	Logistika xarajatlari 15% gacha kamaydi, daromad oshdi
Nike (AQSh)	Yetkazib berish tizimini samarali boshqarish	- 3D bosib chiqarish texnologiyalaridan foydalanish; - Tashqi ishlab chiqarish bazalarini optimallashtirish; - Mahsulotni omborlardan to'g'ridan-to'g'ri mijozlarga yetkazish.	Ishlab chiqarish xarajatlari 30% gacha qisqardi, mahsulot tannarxi tushdi
McDonald's (AQSh)	Operatsion samaradorlikni oshirish	- Tayyor mahsulot zaxiralarini minimal-lashtirish; - Mahalliy yetkazib beruvchilar bilan shartnomalar tuzish; - Self-service kiosklari va avtomatlashtirilgan buyurtma tizimlari.	Ish haqi xarajatlari 25% kamaydi, xizmat ko'rsatish tezligi oshdi
BMW (Germaniya)	Resurslarni optimallashtirish va avtomatlashtirish	- Elektr transport vositalarini rivojlantirish; - Ishlab chiqarish chiqindilarini kamaytirish; - Avtomatlashtirilgan montaj tizimi.	Energiya xarajatlari 20% qisqardi, ishlab chiqarish samaradorligi oshdi

Yuqoridagi jadvaldan shuni xulosa qilish mumkinki, xorijiy kompaniyalarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, xarajatlarni kamaytirishning eng samarali usullari innovatsiyalar, avtomatlashtirish, yetkazib berish zanjirini optimallashtirish va raqamli transformatsiya bilan bog'liq.

Xalqaro kompaniyalar xarajatlarni kamaytirish uchun bir qator strategiyalardan foydalanmoqda. Ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va avtomatlashtirish (Toyota, Tesla, Samsung), sun'iy intellekt va IoT texnologiyalaridan foydalanish (Amazon, General Electric), yetkazib berish zanjirini optimallashtirish va mahalliy ishlab chiqarish imkoniyatlaridan foydalanish (Apple, Nike), xizmat ko'rsatish va operatsion jarayonlarni avtomatlashtirish (McDonald's, Walmart) shular jumlasidandir.

Bu strategiyalar orqali kompaniyalar ishlab chiqarish xarajatlarini 15-30% gacha qisqartirish, operatsion samaradorlikni oshirish va bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga erishgan.

3-jadval

Kompaniyalar xarajatlarni kamaytirish qo'llaniladiga strategiyalar⁶

Strategiya turi	Xarajatlarni kamaytirish usuli	Samaradorlik darajasi
Byudjetlashtirish	Xarajatlarni rejalashtirish va nazorat qilish	Yuqori
Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish	Avtomatlashtirish va texnologiyalarni joriy etish	O'rtacha-yuqori
Ta'minot zanjirini optimallashtirish	Mahalliy yetkazib beruvchilardan foydalanish	O'rtacha
Moliyaviy monitoring	Xarajatlarni har tomonlama nazorat qilish	Yuqori
Innovatsion texnologiyalar	Sun'iy intellekt va raqamli tahlillar	Yuqori

Yuqoridagi jadvaldan shuni xulosa qilish mumkinki, kompaniyalar xarajatlarni kamaytirish uchun turli strategiyalardan foydalanadi. Byudjetlashtirish va moliyaviy monitoring xarajatlarni nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lsa, innovatsion texnologiyalar va avtomatlashtirish xarajatlarni sezilarli darajada qisqartirish imkonini beradi. Shuningdek, mahalliy yetkazib beruvchilardan foydalanish va samarali ishlab chiqarish jarayonlarini yo'lga qo'yish ham kompaniyaning moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Har bir strategiyaning samaradorlik darajasi turlicha bo'lib, kompaniyaning biznes modeli va iqtisodiy sharoitiga qarab farqlanishi mumkin. Shu sababli, kompaniyalar o'z ehtiyojlariga mos strategiyalarni tanlashi lozim.

XULOSA

Kompaniyaning xarajatlarini kamaytirish strategiyasini ishlab chiqishda moliyaviy menejmentning o'rni katta. Budjetlashtirish, xarajatlarni tahlil qilish, avtomatlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali kompaniya xarajatlarini samarali kamaytirish mumkin. Qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki,

⁶ Muallif ishlanmasi

moliyaviy menejment strategiyalaridan samarali foydalanish kompaniyaning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Kelajakda kompaniyalar xarajatlarni kamaytirish uchun sun'iy intellekt va raqamli moliyaviy menejment tizimlaridan keng foydalanishlari zarur. Bu esa kompaniyaning moliyaviy barqarorligini oshirish va raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Brealey, R. A., Myers, S. C., & Allen, F. (2019). *Principles of Corporate Finance*. McGraw-Hill Education.
2. Ross, S. A., Westerfield, R. W., & Jaffe, J. (2020). *Corporate Finance*. McGraw-Hill Education.
3. Brigham, E. F., & Ehrhardt, M. C. (2021). *Financial Management: Theory & Practice*. Cengage Learning.
4. Kaplan, R. S., & Norton, D. P. (2004). *Strategy Maps: Converting Intangible Assets into Tangible Outcomes*. Harvard Business Press.
5. Porter, M. E. (1985). *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. Free Press.
6. Horngren, C. T., Datar, S. M., & Rajan, M. V. (2021). *Cost Accounting: A Managerial Emphasis*. Pearson.
7. Mankiw, N. G. (2020). *Principles of Economics*. Cengage Learning.
8. Anthony, R. N., Hawkins, D. F., & Merchant, K. A. (2017). *Accounting: Text and Cases*. McGraw-Hill Education.
9. Kieso, D. E., Weygandt, J. J., & Warfield, T. D. (2020). *Intermediate Accounting*. Wiley.
10. Johnson, H. T., & Kaplan, R. S. (1987). *Relevance Lost: The Rise and Fall of Management Accounting*. Harvard Business School Press.
11. Drury, C. (2018). *Management and Cost Accounting*. Cengage Learning.
12. Schilling, M. A. (2020). *Strategic Management of Technological Innovation*. McGraw-Hill Education.
13. Christensen, C. M. (1997). *The Innovator's Dilemma: When New Technologies Cause Great Firms to Fail*. Harvard Business Review Press.
14. Gitman, L. J., & Zutter, C. J. (2022). *Principles of Managerial Finance*. Pearson.
15. Helfat, C. E., Finkelstein, S., Mitchell, W., Peteraf, M. A., Singh, H., Teece, D. J., & Winter, S. G. (2007). *Dynamic Capabilities: Understanding Strategic Change in Organizations*. Blackwell Publishing.
16. Axmedov O' A., & Hamidov B. B. (2021). Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishning iqtisodiy ahamiyati va uni to'g'ri hisobga olish zaruriyati. *Iqtisodiyot va innovatsiya jurnali*, 3(2), 45-58.

17. Rasulova S. X. (2020). Moliyaviy menejmentda xarajatlarni boshqarish va ularning tahlili. Toshkent moliya instituti nashriyoti.
18. Yuldasheva A. (2019). Moliyaviy menejmentni tashkil etishning asosiy yo‘nalishlari. Iqtisodiyot va moliya, 5(1), 22-37.
19. Xodiyev B. Yu., & Berkinov B. B. (2020). Moliyaviy tahlil va korporativ xarajatlarni optimallashtirish strategiyalari. Iqtisodiyot va menejment ilmiy jurnali, 4(3), 112-128.
20. Suyunov D. X., & Karlibayeva R. X. (2018). Korxona moliyaviy siyosatini shakllantirish va uning milliy modeli. T.: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti nashriyoti.